

**Utayeva Feruza Xolmamatovna**  
Buxoro davlat universiteti dotsenti, tarix  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipova Marjona Ravshan qizi**  
Buxoro davlat universiteti  
magistranti

## MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNI GERMANIYA BILAN IJTIMOY-IQTISODIY HAMKORLIGI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hamkorlikning mustaqillik yillaridagi xususiyatlari tahlil etilgan. G'arbiy Yevropaning eng rivojlangan va yetakchi davlatlaridan biri sifatida Germaniya O'zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasida alohida o'rin tutadi. Alohida e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev faoliyatiga qaratilgan bo'lib, aynan shu davrda ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarilgan. Maqolada yuqori darajadagi o'zaro tashriflar, tuzilgan bitimlar va memorandumlar, shuningdek, "Markaziy Osiyo – Germaniya" (I va II) sammitlarida muhokama etilgan masalalar — mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, investitsion hamkorlik, sanoatni modernizatsiya qilish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish masalalari tahlil qilingan. Bundan tashqari, iqtisodiyot, ta'lim, turizm, "yashil energetika" va yuqori texnologiyalar sohalaridagi amaliy hamkorlik yo'nalishlariga ham e'tibor qaratilgan. Germaniya Yevropada O'zbekistonning investitsiya, innovatsiya va kasbiy ta'lim sohasidagi eng muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning rasmiy nutqlari, dasturiy asarlari, xalqaro manbalar, ilmiy nashrlar va suhbatlar tahliliga asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Germaniya, strategik hamkorlik, iqtisodiyot, Markaziy Osiyo, sammit, taraqqiyot, turizm, texnologiya, investitsiya, xalqaro hamkorlik.

## СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА С ГЕРМАНИЕЙ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности социально-экономического и политического сотрудничества между Республикой Узбекистан и Федеративной Республикой Германия в годы независимости. Германия, являясь одним из ведущих и наиболее развитых государств Западной Европы, занимает особое место во внешнеполитической стратегии Узбекистана. Особое внимание уделено деятельности Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева, при котором отношения между двумя странами получили новый импульс развития. В статье анализируются двусторонние визиты на высшем уровне, заключённые соглашения и меморандумы, а также участие Узбекистана в саммитах "Центральная Азия Германия" (I и II), на которых обсуждались вопросы укрепления региональной безопасности, инвестиционного сотрудничества, модернизации промышленности и внедрения передовых технологий. Кроме того, рассматриваются сферы практического взаимодействия экономика, образование, туризм, зелёная энергетика и высокие технологии. Германия является для Узбекистана одним из важнейших партнёров в Европе в области инвестиций, инноваций и профессионального образования. Исследование основано на анализе официальных документов, выступлений и программных трудов Президента Ш. М. Мирзиёева, а также на данных международных источников, научных публикаций и интервью.

**Ключевые слова:** Узбекистан, Германия, стратегическое партнёрство, экономика, Центральная Азия, саммит, развитие, туризм, технологии, инвестиции, международное сотрудничество.

## SOCIO-ECONOMIC COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND GERMANY DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

**Annotation.** This article examines the socio-economic and political cooperation between the Republic of Uzbekistan and the Federal Republic of Germany during the years of independence. As one of the most developed and leading countries in Western Europe, Germany occupies a special place in Uzbekistan's foreign policy strategy. Particular attention is given to the activities of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, under whose leadership the relations between the two countries have entered a new stage of development. The article analyzes high-level mutual visits, signed agreements and memorandums, as well as the issues discussed during the "Central Asia Germany" summits (I and II), such as strengthening regional security, investment cooperation, industrial modernization, and the introduction of advanced technologies. In addition, the paper highlights areas of practical collaboration such as economy, education, tourism, green energy, and high technologies. Germany is considered one of Uzbekistan's key partners in Europe in the fields of investment, innovation, and vocational education. The research is based on the analysis of official documents, speeches, and programmatic works of President Sh. M. Mirziyoyev, as well as international sources, scientific publications, and interviews.

**Keywords:** Uzbekistan, Germany, strategic partnership, economy, Central Asia, summit, development, tourism, technology, investment, international cooperation.

**KIRISH.** O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi siyosiy muloqotlarning yangi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan boshlandi. 2017-2019-yillarda o'zaro munosabatlar yangi mazmun bilan boyitildi va kelajak sari dadil intilish xususiyatiga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Germaniya Federativ Respublikasi Federal kansleri Angela Merkelning O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi siyosiy o'zaro manfaatli sohalaridagi aloqalarni ikki va ko'p tomonlama asosda rivojlantirish masalalari muhim o'rin tutadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'zbekiston va Germaniya davlatlari orasidagi hamkorlik aloqalari muhimligini hisobga olgan holda, davlat rahbarlarining tashrifi davomida amalga oshirilgan kelishuvlar, tajriba almashinuvlari, savdo-sotiq, iqtisodiyot sohalaridagi olib borilgan fikr mulohazalari chuqur ilmiy tahlil qilindi. O'zbekiston va jahon siyosatidan kelib chiqqan holda davlat boshqaruvi va menejmentligi, ta'lim tizimi, iqtisodiyot, savdo, qurilish, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda Germaniya standartlarini o'rganib ulardan O'zbekistonda ham joriy qilish masalalarida amalga oshirilgan ishlar va mulohazalar keng tahlil qilingan. Bundan tashqari maqolada Markaziy Osiyo va Germaniya sammitlarida olib borilgan muzokaralar ham yoritib o'tilgan.

**Tahlil usullari:** Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik va izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Germaniya Federativ Respublikasi Federal kansleri Angela Merkelning taklifiga binoan 2019-yil 20-22 yanvarda Germaniyaga tashrif buyuradi. Uchrashuv chog'ida davlat rahbarlari tomonidan O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi siyosiy muloqotni yanada mustahkamlash, o'zaro manfaatli sohalaridagi aloqalarni ikki va ko'p tomonlama asosda rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Rahbari "Markaziy Osiyo+Germaniya" formatida muloqotlarni yo'lga qo'yish taklifini ilgari surgan. Uchrashuvda madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalar ham muhokama qilingan hamda maktab ta'limida samarali nemis pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, jumladan, "Maktablar: kelajak sheriklari" tashabbusini amalga oshirish, O'zbekistonda Germaniyaning yetakchi universitetlari filiallarini ochish, xalqlarimiz o'rtasida madaniy aloqalarni kengaytirish masalalari ko'rib chiqilgan. Davlat rahbarlari zamonaviy xavf-xatar va tahdidlar, shuningdek xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashda yanada yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishib olingan. Tomonlar bundan buyon ham BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlashda davom etajagini bildirgan.

Yevropa Ittifoqining markazi bo'lgan Germaniya Investitsiya va Texnologiyalar sohasida O'zbekistonning asosiy sheriklaridan biridir. Bugungi kunda O'zbekiston va Germaniya o'rtasida savdo sohasida imkon qadar qulay shart-sharoit yaratish rejimi mavjud. Germaniya O'zbekistonga mexanik va elektr jihozlari, transport vositalari, formatsevtika va kimyo mahsulotlarini eksport qiladi. O'z o'rnida O'zbekistondan Germaniyaga oziq-ovqat, to'qimachilik, kimyo mahsulotlari, transport va telekommunikatsiya xizmatlari eksport qilinadi. 2018-yil ma'lumotlariga ko'ra, 2 mamalakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 770 million AQSH dollarini tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 24,5 %ga ko'paygan. Birgina oziq-ovqat mahsulotlari eksportida o'tgan yili 44,6% o'sish qayd etilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston uchun Germaniya bilan davlat boshqaruvi va menejment, iqtisodiy bilimlar va sifatli ta'lim borasida hamkorlikni chuqurlashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohalar bo'yicha nemis tajribasini o'rganish va undan unumli foydalanish Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni muvoffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda germaniyalik investorlar ishtirokida faoliyat yuritayotgan 133 ta korxonaning 33 tasi to'liq nemis kapitali asosida tashkil etilgan. Toshkentda 30 dan ortiq nemis kompaniyalarining vakolatlari mavjud. Savdo-sotiqni yanada rivojlantirishning muhim mexanizmi sifatida Savdo-sotiq va investitsiyalar bo'yicha hukumatlararo ishchi guruh, shuningdek Germaniya-O'zbekiston ishchi kengashi o'z faoliyatini olib bormoqda.

Samarali investitsiyaviy hamkorlikning yaqqol misoli sifatida nemis konsernlari bilan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalarni keltirish mumkin. MAN kompaniyasi bilan zamonaviy yuk avtomobillarini, CLAAS va Lenken kompaniyalari bilan qishloq xo'jaligi texnikalarini Knauf bilan qurilish materiallarini va Deutsche Kabel bilan birgalikda kabelli-o'tkazgich mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan yirik loyihalar shular jumlasiga kiradi. Germaniya O'zbekistonni strategik muhim infratuzilmasini rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Germaniya tomonidan moliyalashtirilayotgan bunday yirik loyihalar sirasiga umumiy qiymati 50mln yevroga teng bo'lgan Toshkentdagi xalqaro aeroportni rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalashni kiritish mumkin. Germaniya, shuningdek, "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasiga ham katta qiziqish bildirmoqda. Nemis mutaxassislari ishtirokida "Qarshi-Termiz" temiryo'l uchastkasini elektrlashtirish ishlari izchil olib borilmoqda. 2018-yilning may oyida ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik o'rnatilgandan so'ng shu vaqtgacha o'tgan butun davr mobaynida eng obro'li nemis deligatsiyasi O'zbekistonga ilk bor tashrif buyurdi. Ushbu deligatsiya faoliyatida qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi mashinasozlik, avtomobil, kimyo va elektrotexnika sanoati ishlab chiqarishda shuningdek bank va turistik xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan 70 dan ziyod nemis firma va kompaniyalar ishtirok etishgan.

Germaniyaning Siemens AG konserenni va O'zbekiston kompaniyalari o'rtasida energetika va sanoat sektorlaridagi loyihalarini amalga oshirish bo'yicha imzolangan qator kelishuvlar muhim ahamiyatga ega. 2017-yilda konsern "O'zbekiston uchun tashabbus" deb nomlangan keng miqiyosdagi hamkorlik dasturini e'lon qildi. Hozirgi kunda Siemens AG konserni "O'zbekneftgaz" AJ bilan uglevodorod qazib olish jarayonlarini raqamlashtirish sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yimoqda. Loyiha doirasida "Aqlli neft qudug'i" "Raqamli neft koni", "Raqamli terminal/neft bazasi" va "Monitoring va diagnostika markazi" yo'nalishlari bo'yicha raqamli jarayonlarni tadbiq etish rejalashtirgan. "O'zbekenergo" AJ bilan Sirdaryo va Yangi-Angren issiqlik elektro stansiyalarining generatsiya obyektlarini modernizatsiya qilish bo'yicha memorandum ham tuzildi. Yuqorida sanab o'tilga barcha konsernlar O'zbekistonga Markaziy Osiyodagi istiqbolli bozorlardan biri sifatida qaramoqda. Ushbu uzoq muddatli loyihalar doirasidagi O'zbekiston-Germaniya hamkorligi O'zbekiston iqtisodiyotini tizimli diversifikatsiyalash va texnologik modernizatsiyalash jarayonlariga shubxasis o'z hissasini qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2017-yilda mamlakatga Germaniyadan kelgan turistlar soni 7200 kishidan ortiqni tashkil etgan, 2018-yilda esa O'zbekistonga 18 mingdan ziyod germaniyalik turistlar kelgan. Bundan

tashqari, Germaniya fuqarolari O'zbekistonga kirish vizalarining elektron tizimidan (e-visa.gov.uz) faol foydalanishgan. 2019-yil 15-yanvardan O'zbekistonga tashrif buyuradigan Germaniya fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz rejimning joriy etilgani mamlakatlar o'rtasida madaniy, ilmiy, ta'lim sohasidagi almashinuvni mustahkamlash, investitsiyaviy muxitni yaxshilash va turistlar oqimini oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 29-sentabr kuni Berlin shahrida Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Shols raisligida o'tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Germaniya yetakchilarining birinchi sammitida ishtirok etdi. Sammit kun tartibiga muvofiq, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, "yashil" energetikani rivojlantirish va iqlim o'zgarishlariga moslashish istiqbollari, tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari hamda barqaror va izchil mintaqaviy taraqqiyotni ta'minlash borasida birgalikdagi sa'y-harakatlar muhokama qilindi. Uzoq muddatli hamkorlikning umummintaqaviy ahamiyatga ega ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi.

Bular investitsiyaviy, innovatsiyaviy va texnologik aloqalar va almashinuvni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish, xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, transport-kommunikatsiyaviy o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish, "yashil" kun tartibini ilgari surish, Germaniya standartlariga muvofiq turli tarmoqlar uchun mutaxassislarini tayyorlash, Afg'oniston aholisiga gumanitar yordam ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 17-sentabr kuni Ostona shahrida ikkinchi "Markaziy Osiyo Germaniya" sammitida ishtirok etdi.

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev raisligida o'tgan tadbirda Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va Germaniya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada chuqurlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Investitsiya va texnologiyalar, o'ta muhim xomashyo resurslari, "yashil" energetika, transport va logistika aloqalari, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohalarida sheriklikni rivojlantirish, shuningdek, ta'lim va madaniy dasturlarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida Germaniya Markaziy Osiyo mamlakatlarida olib borilayotgan demokratik o'zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, mintaqadagi hamkorlik va integratsiyani qat'iy hamda o'zgaras qo'llab-quvvatlayotganini yuqori baholadi. Yig'ilishda "Bizning Berlindagi ilk uchrashuvimiz va bugungi sammit aniq, amaliy natijalarga erishishga qaratilgan ochiq va konstruktiv muloqotimizni davom ettirishga bo'lgan umumiy intilishimizni yana bir bor tasdiqlamoqda", – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari Germaniya bilan munosbatlar chuqur tarixiy ildizlarga ega ekani, Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish maqsadlarini ta'minlashda Federativ Respublikaning muhim o'rnini alohida ta'kidladi. So'nggi yillarda mintaqada yuz bergan chuqur o'zgarishlar o'zaro manfaatli hamkorlikni jadal rivojlantirishga xizmat qilayotgani qayd etildi. O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyoning Germaniya bilan har tomonlama hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator yangi tashabbus va takliflarni ilgari surdi. Avvalo, O'zbekiston rahbari Markaziy Osiyo va Germaniya o'rtasida strategik mintaqaviy sheriklik o'rnatilganini yuqori baholab, ustuvor yo'nalishlarda dasturiy tadbirlarni qamrab olgan uzoq muddatli Hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilishni taklif etdi. Ushbu hujjatni ishlab chiqish uchun "Markaziy Osiyo Germaniya" tahliliy markazlari forumini ta'sis etish va uning birinchi uchrashuvini 2025-yili Xivada o'tkazish zarurligi ta'kidlandi.

Sammitlar kun tartibini tayyorlashda mamlakatlarimiz tashqi siyosat idoralari rahbarlarining yillik uchrashuvlari muhim rol o'ynashi qayd etildi hamda Germaniyaning yetakchi kompaniyalari bilan investitsiyaviy va texnologik sheriklikni kuchaytirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Germaniya o'rtasidagi investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni kengaytirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish, mintaqada qo'shma loyihalarni amalga oshirishga Germaniyaning yetakchi kompaniya va

banklarini faol jalb etish, "Markaziy Osiyo va Germaniya" Investorlar va tadbirkorlar kengashini tuzish, shuningdek, investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha ko'p tomonlama hukumatlararo bitimni qabul qilish imkoniyatlarini o'rganish taklif etilgan. Germaniyaning ilg'or bilim va texnologiyalarini joriy etish asosida o'ta muhim xomashyo resurslari sohasidagi hamkorlik istiqbolli yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari, mintaqada aniqlangan o'ta muhim minerallar va nodir metallar konlarining raqamli xaritalarini yaratish dasturini amalga oshirishda Germaniyaning texnik ko'magini jalb qilishdan mamlakatimiz manfaatdor. Bunday hamkorlikning ishonchli huquqiy bazasini shakllantirish muhimligi ta'kidlandi.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega va dunyoning rivojlangan davlatlari bilan bevosita savdo-iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy kabi barcha sohalarda hamkorlik qila oladi. Yuqorida Germaniya bilan amalga oshirilgan kelishuvlar, muzokaralar, O'zbekiston taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi. Bugungi kunda ko'plab zavod fabrikalar qurish, yo'llarni ta'mirlash Germaniya standartlari asosida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga O'zbekiston iqtisodiyotiga katta foyda keltirayotgan soha bo'lmish turizm ham bo'lib o'tgan muzokaralardan so'ng yanada jonlandi desak adashmaymiz. Shu bilan birga ta'lim sohasida ham amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, O'zbekiston yoshlariga Germaniyaning nufuzli universitetlariga borib o'qib, bilim va tajribasini oshirish imkoniyati berilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз Тошкент – "Ўзбекистон" - 2017. 592 б.
2. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] Тошкент – "Ўзбекистон" 2021.
3. Шавкат Мирзиёев. Светлой и благополучной будет жизнь народаб имеющего благородные устремления и великие целию Том 3
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида" 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи: (Миллий истиклол даври) 3-китоб. – Т.: Шарқ, 2011.
6. Фармонов Р. Ўзбекистон Республикаси сиёсий тизимининг шаклланиши ва фарб тажрибаси. -Т.: ТДПУ, 2004.
7. Utayeva F.X. Buxoro viloyati iqtisodini rivojlantirishda yengil sanoatning o'rni. Buxoro davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. -Buxoro, 2024. -№10. –B.201-207.
8. Гаффоров Я., Холлиев А. Ўзбекистон ва жаҳон ҳмжамияти. -Т.: 2003.
9. С. Саидолимов. "Ўзбекистон-Германия ўзаро манфаатли ҳамкорликнинг янги саҳифаси" Тошкент – "Ўзбекистон" 2019.